



O'zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi
kurashish agentligi

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

"TASDIQLAYMAN"
Huquqni muhofaza qilish
akademiyasj boshlig'ining
birinchi o'rinnbosari



Y.V. Kolenko

2024-yil __ "oktabr"

"TASDIQLAYMAN"
Korrupsiyaga qarshi kurashish
agentligi direktori o'rinnbosari



H.A. Tuxtasheva

2024-yil __ "oktabr"



"TASDIQLAYMAN"
Maktabgacha va maktab ta'limi
vaziri o'rinnbosari

S.B. Radjabov

2024-yil __ "oktabr"

"Korrupsiyaga qarshi kurashish" maxsus o'quv dasturi

("Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida
maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari
va maktab ta'limi muassalari o'quvchilari uchun mo'ljallangan)

Toshkent - 2024

Maxsus o'quv kursi dasturini tuzuvchilar:

**Tursunbekov
Xudayberdi**

**Safarov Temur
Uktamovich**

**Rasulova Gulbahor
Abidjanovna
Vasikova Nodira
Muxitdinovna**

**Shernayev Oybek
Dilmurodovich**

Taqrizchilar:

**Ismailov Bahodir
Islamovich**

**Xakimov Komil
Baxtiyarovich**

**Axmedova Muhayyo
Yulchiyevna**

- Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy ta'lif markazi boshlig'i
- Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lif markazi prokurori, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
- Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tayanch doktoranti
- Maktabgacha va mактаб та'limi vazirligi Maktabgacha ta'lif tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti Maktabgacha ta'lif tashkilotlariga metodik xizmat ko'rsatish va ta'lif sifatini ta'minlash bo'limi mutaxassis
- Maktabgacha va mактаб та'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lif markazi Davlat va huquq asoslari fani metodisti

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti Xalqaro munosabatlar sohasidagi qonunchilik sho'basi rahbari, yuridik fanlar doktori, professor
- Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasи mudiri, yuridik fanlar doktori
- Toshkent shahar Yangihayot tumani 303- IDUM "Davlati va huquqi asoslari" fani oliy toifali o'qituvchisi

KIRISH

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati yangi bosqichga chiqqani, bunda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari takomillashtirilib, jamiyatning barcha jabhalarida korrupsiya illatiga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilishida namoyon bo'lmoqda.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilmoxda, ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiya va ta'limni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va maktab ta'limi muassasalari o'quvchilarining korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini bolaligidan shakllantirish, ularga "halollik vaksinasi"ni singdirish hamda ularga to'g'riso'zlik, adolat, beg'arazlilik va xolislik kabi tushunchalarning mohiyatini anglash va zarur ko'nikmalarni shakllantirish ehtiyoji mavjud.

O'z navbatida, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va maktab ta'limi muassasalari o'quvchilari yoshidagi bolalarga "korrupsiya" atamasining ma'nosini "halollik" va shunga o'xhash qadriyatlar va tamoyillar orqali interaktiv dasturlar yordamida tushuntirish ishlari yo'lga qo'yilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonlarida bolalar ilk yoshdan belgilangan tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilish, boshqalarni hurmat qilish, hulq-atvor qoidalariga rioya qilishga o'rganib boradilar.

Shu bilan bir qatorda, kun davomida badiiy adabiyotlar, hikoya va ertaklar o'qib berish orqali tarbiyalanuvchilarga ona-Vatan, ota-onas oldidagi burchlari va huquqlari, huquqiy savodxonligini oshirish, halollik, to'g'riso'zlik, vijdoniylik, do'stlik, kamtarlik, xushmuomala bo'lish, mehnatsevarlik, sog'lom hayot faoliyati haqidagi ko'nikmalar doimiy ravishda singdirib boriladi.

Jahon miqyosida "korrupsiya" illatiga qarshi kurashish bo'yicha bolalar uchun saboq maktablarini shakllantirish tashabbuslari rivojlanib bormoqda.

Masalan, 2019-yilda BMT Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Korrupsiyaga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturi loyihasi boshlanib, butun dunyoda keng tarqalmoqda.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-228-soni qarori bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va maktab muassasalari o'quvchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlarini tasdiqlash va unda GRACE dasturidan ham foydalanish nazarda tutilgan.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish” o’quv dasturi O’zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan.

Maxsus o’quv dasturi ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini va maktab o’quvchilarini uchun ta’lim muassasasida o’tilayotgan mavzularni mustahkamlash maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasi ko’magida milliy va jahondagi mavjud bo’lgan resurslardan keng foydalanish imkonini yaratadi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish” maxsus o’quv dasturi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining barcha yosh guruhlarida ertalabki qabul jarayoni suhbatlarida, umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilarini uchun barcha sinflar doriasida “Tarbiyaviy soatlar”da va umumiy o’rata ta’limning “Tarbiya”, “Tarix” shuningdek, “Davlat va huquq asoslari” fanlarida mustahkamlab boriladi.

Virtual akademiyada joylashgan o’quv materiallar ta’lim muassasalarini tarbiyachi-o’qituvchilariga o’quv mashg’ulotlarini yanada tushunarliroq va interaktiv ko’rinishda o’tkazishga ko’mak beradi.

O'QUV DASTURINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Maxsus o'quv kursining maqsadi – maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va maktab ta'limi muassasalari o'quvchilarining korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini bolaligidan shakllantirish, ularga "halollik vaksinasi"ni singdirish hamda ularga to'g'riso'zlik,adolat, beg'arazlilik va xolislik kabi tushunchalarning mohiyatini anglashi va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Maxsus o'quv kursining asosiy vazifasi:

maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyalanuvchilari va maktab ta'limi muassasalari o'quvchilarining adolatlilik, tenglilik, xolislik, to'g'riso'zlik va korrupsiyaga qarshi murosasizlik qadriyatlarini bolalarda shakllantirish;

munosib xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish;

bolalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, bunda global resursi (GRACE) dasturi asosida tarbiyalanuvchilarga hamda o'quvchilarga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarini tushuntirish, shuningdek, yangi bilimlarni egallashiga ko'maklashish;

bolalarning halollik vaadolat kabi qadriyatlarni tarqatish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

ZAMONAVIY AXBOROT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Zamonaviy axborot texnologiyalari: maxsus o'quv kursi tarbiyalanuvchilarga va o'quvchilarga video-roliklar, multiplikatsion filmlar, komikslar, slaydlar, multimedia materiallarini kompyuter vositalari orqali Virtual akademiya imkoniyatlarini qo'llagan holda o'qitiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: maxsus o'quv kursini o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda interfaol usullardan tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning kontingentidan kelib chiqib, "Yosh qaxramon", "Rol o'yinlari", "Amaliy o'yin", "Muammoli vaziyat" va boshqa pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi.

NAZARIY MASHG'ULOTLAR VA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMALAR

Nazariy mashg'ulotni tashkil etish: pedagog suhbat, ertak, hikoya, huquqiy, ma'nnaviy-ma'rifiy adabiyotlardan va qonun hujjatlaridan foydalanib, mavzu yuzasidan o'rgatilishi lozim bo'lgan tushunchalarni reja asosida taqsimlagan holda quyidagi metodlardan foydalangan holda bilim beradi:

O'yin metodi: yaxshi va yomon, halollik vaadolat tushunchalarini aniq namoyish etishga qaratilgan sahnalashtirilgan syujetli-rolli o'yinlardan

foydanish,

Qissalar va hikoyalar: qahramonlar yomon xulq-atvor yoki halollik bilan bog'liq tanlovlarga duch keladigan ertak, hikoya, qissalardan foydalanish, bolalarga o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini tushunishga yordam berish.

Interaktiv metodlar: ijobiy xulq-atvorga ega bo'lgan qahramonlarning duch keladigan vaziyatlarini ko'rsatadigan roliklar, animatsion filmlar va tasvirlar orqali tushuntirish.

Muzokaralar va suhbatlar: bolalar bilan halollik, ishonch va to'g'ri harakat qilishning ahamiyati haqida oddiy suhbatlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berish.

Loyihalar va ijodiy vazifalar: halollik va mas'uliyat mavzularida rasm chizish, plakatlar va kollajlar yaratish, bu bolalarga o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini ifoda etishga imkon berish.

Ota-onalarni jalb qilish: ota-onalar uchun farzandlari bilan birgalikda tadbirlar tashkil etish, oilada korrupsiyaga qarshi qadriyatlarini qo'llab-quvvatlash, mavzularni bolalar bilan muhokama qilish.

Shuningdek, <https://grace.unodc.org/grace/en/secondary/index.html> BMTning giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (BMT GJB) tomonidan GRACE korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda ta'lim, ushbu sohada bolalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish global resursi yordamida mavzular bo'yicha minimal darajada bilishi lozim bo'lgan tushunchalarni beradi.

Tarbiyalanuvchilar va o'quvchilarning mavzuga oid savollariga javob beradi, mavzuni mustahkamlaydi, yangi atamalar bo'yicha qo'llaydigan pedagogik texnologiyalar orqali tarbiyalanuvchilar va o'quvchilarni maxsus o'quv kursi bo'yicha tushunchasini shakllantiradi. Pedagog nazariy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda tegishli adabiyotlardan foydalanishi, korrupsiyaga qarshi kurashga oid normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganishi, gazeta va jurnallardagi maqolalardan, veb-saytlardan foydalanishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ishlarni tashkil etish: pedagog o'tilgan mashg'ulotlar xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ish mavzulari ro'yxatini shakllantiradi, mustaqil ishni bajarish shaklini belgilaydi, mustaqil ishni bajarish bo'yicha tegishli ko'rsatma va tavsiyalar beradi.

O'quv dasturining informatzion-uslubiy ta'minotida ma'ruza mashg'ulotlari, mustaqil ish uchun zarur bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda ta'limning zamонавиy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar qo'llanilishi nazarda tutiladi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARI UCHUN

3-6 yoshdagi bolalarni rivojlanish natijalariga erishish uchun talablar

- “To‘g‘riso‘zlik”, “Halollik” va “Adolat” tushunchalariga mos tushuvchi o‘ynichoq qaxramonlarni tanlashi va ular bilan o‘ynashi;
- Kattalarga hurmat ko‘rsatuvchi xulq-atvorni ko‘rsata bilishi;
- Telefon va tele- elektron qurulmalaridan foydalanishda milliy va an‘anaviy videolarni tanlash va ko‘rish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Jamoat joylarida o‘zini tutish va odob-ahloq qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ;
- Begona shaxslar bilan muloqot qilish qoidalarini shakllantirish;
- Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida buyumlar va uyinchoqlardan foydalanishning tartib qoidalarini tushuntirish;
- Bolalarga halollik vaadolat saboqlarini misol qilib ko‘rsatish orqali ushbu ko‘nikmani shakllantirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun mo‘ljallangan MAVZULAR

T/r	Mavzu	Asosiy tushunchalar	O‘qitish shakli
1.	Halollik vaadolat haqida nimalarni bilamiz?	Halollik,adolat va shu kabi insoniy sifatlarga ta’rif berish; bolalar huquqlari va ularni himoya qilish haqida suhbat.	Suhbat, ertak, hikoya, bilimlarni mustahkamlash (rivojlantiruvchi markazlarda)
2.	Odob-axloq qoidalari va ularga rioya qilish	Odob-axloq qoidalari, ularning ahamiyati haqida tushuncha berish.	Suhbat, ertak, hikoya, bilimlarni mustahkamlash (rivojlantiruvchi markazlarda)
3.	Yolg‘on va uning salbiy oqibatlari	Yolg‘on gapirishning salbiy oqibatlari haqida sodda tushunchalar berish.	Suhbat, ertak, hikoya, bilimlarni mustahkamlash (rivojlantiruvchi markazlarda)
4.	Hammaga teng munosabatda bo‘lish	Har bir bolaga teng va do’stona munosabatda bo‘lish, kamsitmaslik va hurmat qilishga o‘rgatish	Suhbat, ertak, hikoya, bilimlarni mustahkamlash (rivojlantiruvchi markazlarda)
5.	Begona shaxslardan hadyalarni qabul qilishda ehtiyoj bo‘lish	Begona shaxslardan sovg‘a olmaslik, sovg‘alarning maqsadi haqida o‘ylash va ularning ortidagi niyatni tushuntirish	Suhbat, ertak, hikoya, bilimlarni mustahkamlash (rivojlantiruvchi markazlarda)
6.	Nomunosib xatti-harakatlarni tanish	Odobsizlik, yolg‘onchilik va boshqa yomon hatti-	Suhbat, ertak, hikoya, bilimlarni mustahkamlash

	va ulardan saqlanish	harakatlarni tushuntirish, o'ziga va o'zgalarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlaridan saqlanishga o'rgatish	(rivojlantiruvchi markazlarda)
8.	Boshqalarning mulkini o'zingizni deb o'yamaslik.	Boshqalarning buyumlariga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish va ularni ruxsatsiz olmaslik muhimligi haqida sodda tushuntirish.	Suhbat, ertak, hikoya, bilimlarni mustahkamlash (rivojlantiruvchi markazlarda)
9.	Belgilangan qoidalarga amal qilish	Uyda, ko'chada va jamoat joylarida belgilangan tartib-qoidalarga amal qilish, qoidalarlarning himoya va tartib uchun ekanligiga e'tibor qaratish.	Suhbat, ertak, hikoya, bilimlarni mustahkamlash (rivojlantiruvchi markazlarda)

Ishchi dasturining maqsadi: Maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida halollik tushunchasini yoshga mos tarzda tushuntirish, odob-axloq qoidalariiga amal qilish, halollik va adolatlilik kabi xislatlarni shakllantirish.

Amaliy faoliyat turlari:

- Hikoyalar va she'rlar o'qish: Bolalarga oddiy va mazmunli hikoyalar orqali odob-axloq qoidalalarini o'rgatish.
- Multfilmlar ko'rish: Odob-axloq mavzulariga bag'ishlangan sodda va bolalarga mos multfilmlar.
- Roli o'yinlar: Bolalarni voqealarda ishtirok etishga chaqiradigan, o'yinlar orqali halollik va adolatlilik tushunchalarini shakllantirish.
- Sahna ko'rinishi va qo'g'irchoq teatrлari: Bolalarni sahna ko'rinishlarida ishtirok etishga chaqiruvchi interaktiv mashg'ulotlar.

Dastur natijalari:

- Bolalarda halollik, adolatlilik, haqiqat va do'stlik kabi muhim odob-axloq qoidalariiga sodiqlik hissini shakllantirish.
- Bolalarda qoidalarga amal qilish, do'stlarga yordam berish va do'stlik munosabatlarini rivojlantirish.

Maxsus o'quv dasturi davomida berilgan bilim va ko'nikmalar asosida bolalarning rivojlanishi tarbiyalanuvchilarining rivojlanish xaritalarida belgilab boriladi. Kuzatuv natijalariga ko'ra pedagoglar xamkorligida ishlar tashkil etiladi.

Mavzularga oid qo'shimcha manbalar (ertak va hikoyalar)

"Halollik"

O'tgan zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. Uning kambag'al oshnasi bor ekan. Kunlardan bir kuni u dehqondan bir qism yerini sotishni iltimos qilibdi. Dehqon yerning bir chekkasini kambag'al oshnasiga sotibdi.

Yerni olgan odam bir qalin og'aynisidan qo'sh ho'kiz olib kelib, yer haydayotganida, omochning tishi bir nimaga tegibdi. Dehqon parvo qilmay hayday beribdi. Qaytib o'sha yerga kelganida omochning tishi yana haligi narsaga urilibdi. Kambag'al dehqon: "Ilgari bu yerda daraxt bo'lgan, uning to'nkasi qolib ketgan shekilli", — deb o'yabdi.

U ketmon olib kelib, omoch tishiga qadalgan narsani kavlay boshlabdi. Nihoyat, u yerdan xumcha chiqibdi. Uni ochib qarasa, ichi to'la tilla emish.

Dehqon yerning qolgan qismini ham haydab, urug' sepibdi. So'ng ho'kizlarni egasiga topshiribdi. Xumchadagi tillani ko'tarib, to'g'ri yer sotgan dehqon oshnasining uyiga boribdi. U oshnasiga:

— Sizdan olgan yerimni haydayotgan edim, mana shu xumchani topib oldim, ichidan tilla chiqdi. Uni o'zingizga olib keldim, debdi.

Dehqon kambag'alga: Men sizga yerni sotganman. Demak, u yerda nimaiki bo'lsa, sizniki bo'ladi. Men yer tagida nima borligini bilmaganman. Sizga xudo beribdi. Bola-chaqangiz bilan maza qilib yashang, — deb xumchani olmabdi.

Kambag'al dehqon esa: "Bu boshqa kishining noni. Uni olsam, o'g'ri, jinoyatchi bo'lib qolaman", deb o'yab, xumchani yana boy dehqonga uzatibdi. Ikkalasi hech kelisha olmabdi.

Nihoyat, ular masjidga boradigan, u yerdagi odamlardan so'rab, bu ishni hal qiladigan bo'lishibdi...

Masjiddagilar: "Qishloqdagi yetim-yesir va beva-bechoralarga bo'lib beringlar", — deb maslahat berishibdi. Bunga dehqon ham, kambag'al ham rozi bo'libdi.

Shunday qilib, ular tillani qishloqdagi beva-bechoralarga, kambag'al, yetim-yesirlarga tarqatishibdi. Kambag'al dehqon esa o'z mehnati bilan halol kun ko'rib, murod-u maqsadiga yetibdi.

"Quyon va uning do'stlari"

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda kichkina quyon yashar ekan. U mehribon va g'amxo'r bo'lib, hech kimni xafa qilmas ekan. Uning o'rmon chetida chiroyli, mustahkam uyi bor ekan. Bahor kunlarining birida eshik taqilladi. Tashqarida tulki turardi. Tulki uyi bo'rondan keyin vayron bo'lgani va uning yashash uchun joyi yo'qligini aytib ko'z yoshi to'kibdi. Quyon tulkiga rahmi kelibdi, uyi ta'mirlanguncha u bilan qolishi mumkinligini aytibdi. Shunday qilib, tulki quyonning uyida yashay boshlabdi.

Bir kuni quyon do'konga ketganida tulki eshik qulflarini almashtirib, barcha derazalarni yopib qo'yibdi. Uyga qaytgan quyon eshikni ocholmaganidan

juda hayron bo'lib, eshik qo'ng'irog'ini bosibdi. Tulki eshikni ochib, endi mana bu uy meniki deb quyonni haydabdi.

Quyon yum-yum yig'lab, o'rmon bo'ylab yurib ketayotib, bo'riga duch keldi. Bo'ri o'rmon tartibini saqllovchi edi.

Nega yig'layapsan?

Qanday qilib yig'lamay, tulki meni o'z uyimdan haydab yubordi! Men bechoraga yordam beradigan hech kim yo'q.

Bu tartibsizlik, biz buni tartibga solishimiz kerak! Uni haydab chiqarishga yordam berishimni xohlaysanmi?

Rostdan ham yordam berasizmi?

Albatta, yordam beraman, lekin mashinam buzilib qolgan, maoshim ham tez orada kelmaydi... Xullas, sening to'loving 200 so'mni tashkil qiladi!

200 so'm??? Axir biz ertakdamiz! Ertakda hamma bir-biriga beminnat yordam beradi!

Avval shunday edi, lekin endi yaxshi yashashni istasang, uddaburon bo'lishing kerak! Istasang taklifimga rozi bo'l...

Quyon avvalgidan ham g'amgin bo'lib, yo'lida davom etdi.

Quyon yo'l yurib ketayotgan edi, oldidan o'rmon boshlig'i ayiq chiqibdi.

Quyon nega yig'layapsan?

Qanday qilib yig'lamay, tulkiga boshpana berdim, lekin u meni o'z uyimdan haydab yubordi!

Bu tartibsizlik, biz uni tartibga solishimiz kerak!

Ayiq amaki menga yordam bering!

Men yordam beraman, faqat sen saylovda menga ovoz berasan, qarindosh va do'stlariningdan xam menga ovoz berishlarini so'raysan.

Axir saylovlar ixtiyoriy-ku?

O'zing bilasan, unday bo'lsa uysiz qolaver!

Quyon xafa bo'lganidan battar yig'lab yubordi va yordam izlash uchun yo'lida davom etdi. Yo'lda ketayotib, tikanni bosib oldi va og'riqdan yurolmay qoldi.

Shu payt uchib o'tayotgan boyqush yig'layotgan quyonni ko'rib, uning oldiga keldi.

Senga nima bo'ldi, nega buncha yig'layapsan?

Tulki meni uyimni tortib olgani uchun yig'layapman. Yana panjamga tikan kirib og'riq berayotgani uchun yig'layapman.

Oh, oh, qanday falokat! Kel, yelkamga suyan, seni o'rmon shifoxonasiga olib boraman, u yerda tikanni tortib olishadi.

Ular shifoxonaga kelib, shifokorning xonasiga kirishdi. U yerda oq xalat kiygan olmaxon o'ziga oro berib, pardoz qilib o'tirardi.

Azizim, olmaxon! Bemorni ko'rib qo'ysangiz, quyon panjasiga sanchilgan tikanni tortib olishingiz kerak, dedi boyqush.

Siz bilan ovora bo'lishga vaqtim yo'q, mening ish kunim bir necha daqiqa dan so'ng tugaydi.

Iltimos, yordam bering!

Bilasizmi, men yong'oqni juda yaxshi ko'raman. Menga bir savat yong'oq olib kelsangiz sizlarga yordam beraman.

Yong'oqni qayerdan topamiz? Axir quyonga zudlik bilan yordam kerak!

Men hech narsani bilmayman, xonani tark eting, ish vaqtim tugadi!

Quyon xafa bo'lib xayolga cho'mdi.

Hoy quyon, tushkunlikka tushma! O'rmonda halol va mehribon hayvonlar ham bor, yur qaldirg'och yoniga boraylik, u juda mehribon va hamdard qush, senga albatta yordam beradi, dedi boyqush.

Ular birgalashib qaldirg'och tomon yo'l oldilar. Yo'lda ketayotib kirpiga duch keldilar. Oqko'ngil kirpi ularni mashinasiga o'tkazib, manziliga yetkazib qo'ydi. Mehribon qaldirg'och quyon panjasidagi tikanni chiqarib, unga malham surtib, bog'lab qo'ydi.

Hayvonlar birgalashib quyonga uyni qanday qaytarish haqida o'ylay boshladilar va o'rmon soqchisi burgutga qo'ng'iroq qilib yordam so'radilar. Burgut o'zining eng yaxshi askarlari bilan birgalikda tulkini shunchalik qo'rqtidiki, u tezda birovning uyidan sakrab chiqib, orqasiga qaramay qochdi. Faqatgina burgut unga yetib olib, boshqalarni aldab qo'ymaslik uchun profilaktik suhbat o'tkazdi.

Uyiga qaytib kelgan quyon xursand bo'lganidan qo'shiq aytib, raqsga tusha boshladi. U barchani choy va mazzali murabbo bilan siyladi, qutqaruvchilarga sovg'alar berdi. Axir u nafaqat uyni qaytardi, balki yaxshi do'stlar ham orttirdi. Shunday qilib, quyon o'z uyida baxtiyor hayot kechirib, murod-u maqsadiga yetibdi.

"Ayyor tulkinining nayranglari"

Bir bor ekan, bir yo'q ekan qadim zamonda emas, balki shu zamonda o'rmonda tulki, quyon, bo'ri va ayiq inoq do'st bo'lib yashar ekan. Kunlarning birida ayyor tulki do'stlarini sinab ko'rmoqchi bo'libdi. Tulki: "Voy dod! Uyimga o'g'ri tushdi! Yordam beringlar!", deb baqira boshladi. Buni eshitgan do'stlari shosha-pisha tulkinining uyiga kelishdi.

Tulki nima bo'ldi? Nega dod solasan?, so'radi ayiq.

Kimdir uyimga kelib, meni sevimli qoshiqchami o'g'irlab ketibdi, uni kim oldi?, dedi yig'lab tulki.

Ayiq, bo'ri va quyon hayron bo'lib, bir-birlariga qarashdi. Bo'ri: "Axir biz seni qoshiqchingni nima qilamiz? Bizlar ahil do'st bo'lsak, do'stlar bir-birining narsalarini o'g'irlashmaydi", dedi.

Biroz vaqt o'tib, tulki berkitib qo'ygan joyidan qoshiqchisini olib ko'rsatdi va ayyorona kulib qo'ydi. Shunda do'stlari nega bizni aldading, deb so'rashdi.

Sizlarni sinab ko'rmoqchi edim, debdi tulki.

Bunday ish qilma, yolg'onchilik — yomon odat. Yolg'onchining do'sti bo'lmaydi, dedi ayiq.

Ertasi kuni tulki yana "Voy dod yordam beringlar, qopqonga tushib qoldim!", deb dod soldi. Buni eshitgan quyon tezlik bilan borib, ayiqqa xabar

berdi. Yordamga kelgan do'stlar ne ko'z bilan ko'rsinki, tulki choy ichib o'tirgan ekan. Quyon: "Yana bizni aldading, nega bunday qilasan?", deb so'radi.

Meni qanchalik yaxshi ko'rishlaringni bilmoxchi edim, deb javob beribdi tulki va yana ayyorona kulib qo'yibdi.

Ertasi kuni tulki yana yordam so'rab baqira boshlabdi:

Voy dod yordam beringlar! Chuqurga tushib ketdim, Yordam! Yordam!

Bu safar tulki juda yomon qichqirar edi. Buni eshitgan do'stlari tulkining oldiga kelishdi. Tulki esa yonboshlab, xotirjam yotardi. Buni ko'rib, do'stlari undan qattiq xafa bo'lishdi.

Keyingi kun tulki haqiqatdan ham qopqonga tushib qoldi va ovozi boricha do'starini yordamga chaqira boshladni. U qancha dod solsa ham, hech kim parvo qilmadi, hamma o'z yumushi bilan band bo'ldi. Qopqonga tushgan tulki qancha dod solmasin, hech kim yordamga kelmadi.

Qissadan hissa shuki, yolg'onchilik yaxshilikka olib kelmaydi va yolg'onchining do'stlari bo'lmaydi.

"Yaxshi va yomon odatlar"

Maqsud bog'chaga olib kelgan o'yinchoq mashinasini do'sti Muzaffar bilan birga o'ynar edi. Shu payt tarbiyachi opa erkin mavzuda rasm chizishni taklif qildi.

Buni eshitgan Muzaffar hammadan yaxshi rasm chizishini aytib, maqtana boshladni. Maqsud do'sti Muzaffardan yordam berishini so'radi. Muzaffar esa "menga o'yinchoq mashinangni bersang, senga chizib beraman", deb aytdi.

Maqsud bir oz ikkilanib, mashinasini do'stiga berdi. Muzaffar esa unga rasm chizib berdi. Tarbiyachi Maqsudning rasmini olib, maqtay boshladni, buni ko'rgan bolalar bu rasmni Maqsud emas, Muzaffar chizib bergenini aytilar. Shunda tarbiyachi bolalarga Muzaffarning bu qilgan ishi "yomon odat" ekanligi, bu yomon oqibatlarga olib kelishini, do'stlar bir-birlariga biror narsa yoki manfaat uchun emas, shunchaki yaxshilik qilishlari kerakligi haqida tushuntirib berdi.

Beg'araz yordam"

Surayyo biroz erkatoy qiz bo'lib, kimdir undan yordam so'rasa, unga javoban "menga evaziga nima berasiz, konfetmi yoki shokolad?" deb narsa talab qilar edi.

Bir kuni mehmonga kelgan buvisi Surayyoga "qizim menga ko'z oynagimni olib ber" deb iltimos qildi. Surayyo har safargidek "evaziga nima berasiz?" deb turib oldi. Shunda buvisi Surayyoga qarab:

- Qizim sening bu odating yomon odat, bu "poraxo'rlik" deyiladi, dedi.
- Buvijon poraxo'rlik nima? -deb so'radi Nasiba

- Biror bir qilingan yordam, ko'mak evaziga narsa talab qilishlik bu - poraxo'rlikdir, bora-bora bu odatga aylanadi va bu kelajakda yomon oqibatlarga olib keladi. Bunday odamlarni do'sti ham bo'lmaydi.

- Buvijon meni kechiring, boshqa hech kimdan , hatto dugonalarimdan ham bergen yordamim evaziga narsa so'ramayman, -dedi Surayyo ko'zlar yoshlanib. Buvi nabirasini bag'rige bosib, dedi:

-Sen mening eng aqlli va mehribon nabiramsan!

Mavzuga oid o'yinlar

"Yaxshi yoki yomon"

Bolalar aylana bo'lib turadilar. Tarbiyachi to'pni tashlab, turli vaziyatlarni nomlaydi. Bolalar to'pni ushlab, javob beradilar (tushuntirish bilan)

- odobli bola bo'lish;
- odobsiz bola bo'lish;
- haqiqatni aytish;
- uy ishlarida yordam berish;
- doim to'g'riso'z bo'lish;
- yolg'on so'zlash;
- yaxshi ishlar va amallar qilish;
- haqorat qilish;
- o'z ishini tartibli bajarish;
- o'g'irlash;
- birovning narsasini beso'roq olish.

"Yaxshilik yomg'iri"

Bolalar doira bo'lib turadilar. Ularning barchasi – "yaxshilik yomg'ir tomchilari". Doira o'rtasida ona bulut joylashgan. Quvnoq musiqa sadosi ostida barcha yomg'ir tomchilari ona bulut atrofida aylanadi. Musiqa to'xtaganda ona bulut yonida to'xtagan yomg'ir tomchisidan kimga yordam bergenini so'raydi. Navbatma-navbat barcha yomg'ir tomchilari ona bulutga o'zlarining yaxshi ishlari haqida aytib beradilar.

Masalan: "Men issiqliqdan so'lib qolgan gulni ko'rdim va unga suv berdim"; "Men chang bo'lgan barglarni ko'rdim va uni yuvdim"; "Men bolalarga kamalakni ko'rsatdim va xursand qildim" va hokazo.

"Aql va mehr"

Bolalar juftlarga bo'linadilar. Biri aql, ikkinchisi mehr. Har bir juftlik ulardan qaysi biri muhimroq va kim odamlarga tezroq yordam bera olishi haqida aytib beradi.

Masalan, "Men sanashni o'rganaman", "Men onamga uy ishlarida yordam beraman" va hokazo

“Yaxshi ishlar”

Bolalarga turli xil narsalar yoki hodisalar chizilgan kartalar beriladi, masalan, quyosh, suv, shamol, uy, mebel, idish-tovoq, kiyim-kechak, kitob, ota, ona, do'st va boshqalar. Har bir bola o'z kartasidagi rasmida berilgan narsa (odam)ning nomini aytmasdan, uning yaxshi ishlari va foydali tomonlari haqida aytadi. Bolalar do'stlari kim yoki nima haqida aytayotganini taxmin qilishlari kerak.

Masalan: yuvadi, tozalaydi (suv); yomg'irdan va oftobdan himoya qiladi (soyabon), doim yordam beradi (do'st) va hokazo

“Yaxshi fazilatlar”

Bolalarga turli kasb egalarining rasmlari tushirilgan kartalar beriladi. Bolalar kasb egalari o'zlarining yaxshi fazilatlari bilan odamlarga qanday yordam berishlarini aytishlari kerak.

Masalan, halol oshpaz ovqatni faqat eng yangi mahsulotlardan tayyorlaydi; rostgo'y shifokor bemorlarga eng yaxshi dori beradi va hokazo.

“Adolatli bo'lising kerak!”

Adolat – bu haqiqat,
Har kim bilishi kerak.

Haqiqatni tan olib,
Adolatli bo'lising kerak!

Adolat – bu yaxshilik,
Har kim bilishi kerak.
Yordam berib boshqaga,
Adolatli bo'lising kerak!

Adolat – bu halollik,
Har kim bilishi kerak.
O'g'rilik qilmasdan,
Adolatli bo'lising kerak!

Adolat – bu to'g'riso'zlik,
Har kim bilishi kerak.
Yolg'on gapirmasdan,
Adolatli bo'lising kerak!

MAKTAB TA'LIMI TASHKIOTLARI O'QUVCHILARI UCHUN ASOSIY QISM

*Ta'lif faqat so'z va o'rgatish bilan bo'ladi.
Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo'ladi.
Umar Hayyom*

O'quv dasturining maqsadi: umumta'lim maktab o'quvchilarida korrupsiya tushunchasini yoshga mos tarzda tushuntirish, odob-axloq qoidalariga amal qilish, halollik va adolatlilik kabi ko'nikmalarni shakllantirish. Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini bolaligidan shakllantirish, ularga "halollik vaksinasi"ni singdirish hamda ularga to'g'riso'zlik, beg'arazlilik va xolislik kabi tushunchalarning mohiyatini anglatish.

O'quv dasturining asosiy vazifasi – umumta'lim maktab o'quvchilarining adolatlilik, xolislik va to'g'ri-so'zlik qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirish;

sovg'a berish va olish korrupsiyaga qarshi madaniyatini shakllantirish;

korrupsiyaga duch kelganda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish ko'nikmalarini shakllantirish;

korrupsiyaga qarshi ta'lif va bolalarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturi orqali o'quvchilarga korrupsiya va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarini yangicha tushunish va yangi bilimlarni egallashiga ko'maklashish;

o'quvchilarning korrupsiyaga qarshi kurashish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;

o'quvchilarga ta'lif muassalarida berilgan mavzuni yanada keng o'rganish uchun ko'p va foydali materiallarni yetkazish orqali tanlab olish imkoniyatini kengaytirish.

NAZARIY MASHG'ULOTLAR VA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMALAR

Nazariy mashg'ulotni tashkil etish: o'qituvchi huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy adabiyotlardan va qonun hujjatlaridan foydalanib, mavzu yuzasidan o'rgatilishi lozim bo'lgan tushunchalarini reja asosida taqsimlagan holda quyidagi usulublardan foydalangan holda bilim beradi (mashg'ulotlar har bir sinflar doirasida sinf soati darslarida olib borilishi maqsadga muvofiq).

Amaliy mashg'ulotlari turlari:

Rolli-o'yin texnologiyasi: halollik va adolatsizlik tushunchalarini aniq namoyish etishga qaratilgan rol o'ynash mashqlaridan foydalanish. Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi.

Interaktiv usullar: korrupsiyaga duch keladigan vaziyatlar va unga qarshi kurashishga doir filmlar va videoroliklarni ko'rsatish orqali tushuntirish.

Muzokaralar va suhbatlar: o'quvchilar bilan halollik, ishonch va to'g'ri

harakat qilishning ahamiyati haqida suhbatlar. Bu tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berish.

Loyihalar va ijodiy vazifalar: korrupsiya – jamiyat zavoli mavzularida rasm chizish, plakatlar va kolajlar yaratish, bu o'quvchilarga o'z fikrlarini va hissutuyg'ularini ifoda etishga imkon berish. Korrupsiyani oldini olish (profilaktirkasi)ga doir loyihalar ishlab chiqish.

Ota-onalarni jalg qilish: ota-onalar uchun tadbirlar tashkil etish, shunda ular oilada korruptsiyaga qarshi qadriyatlarini qo'llab-quvvatlashlari va bu mavzularni o'quvchilar bilan muhokama qilish.

O'quvchilarning mavzuga oid savollariga javob beradi, mavzuni mustahkamlaydi, yangi atamalar bo'yicha qo'llaydigan pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchilarni Maxsus o'quv kursi bo'yicha tushunchasini shakllantiradi. O'qituvchi nazariy mashg'ulotlarga tayyoragarlik ko'rishda tegishli adabiyotlardan foydalanishi, korruptsiyaga qarshi kurashga oid normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganishi, gazeta va jurnallardagi maqolalardan, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardan samarali va maqsadli foydalanishi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish: o'qituvchi o'tilgan mashg'ulotlar xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ish mavzulari ro'yxatini shakllantiradi, mustaqil ishni bajarish shaklini belgilaydi, mustaqil ishni bajarish bo'yicha tegishli ko'rsatma va tavsiyalar beradi.

Dastur natijalari: O'rganish jarayonida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

- o'quvchilarda halollik, adolatlilik, haqiqat va do'stlik kabi muhim odob-axloq qoidalariiga sodiqlik hissini shakllantirish.
- o'quvchilarning korruptsiya va uning zararli oqibatlari haqida yoshga mos bilimlari bo'lisi.
- huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik;
- huquqiy bilim va huquqiy ong;
- ijtimoiy moslashuvchanlik va faol fuqarolik pozitsiyasi;
- shaxs sifatida o'zlikni anglash;
- o'zgalar huquqlarini hurmat qilish;
- huquqiy madaniyatli bo'lismi.

O'quvchilarga o'quv-dasturi bo'yicha qo'yiladigan talablar:

- ✓ Ijtimoiy moslashuvchanlik va faol fuqarolik
- ✓ Umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar
- ✓ Shaxs sifatida o'zligini anglash
- ✓ Huquqiy ongga ega bo'lismi
- ✓ Huquqiy madaniyatli bo'lismi

**Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan
MAVZULAR**

T/r	Mavzu	Sinf	Fanlarda integratsiya	Asosiy tushunchalar	O'qitish shakli
1.	Biz ahil jamoamiz	1	Tarbiya	So'zlashish odobi. O'zaro yordam. Ishonch nima? Hurmat va adolat, Mas'uliyat va hisobdorlik.	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
2.	Halollik	1	Tarbiya	Halollik nima? Adolatga sodiqlik, Boshqalarni hurmat qilish.	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi.
3.	Men va mening sinfdosh do'stlarim	2	Tarbiya	Biz bir-birimizga yordam beramiz. Hamjihatlik, hurmat, mas'uliyat.	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
4.	Ishonamiz va tekshiramiz	2	Tarbiya	Nega tekshirib ko'rish kerak? Bizga telefon, televizor, kompyuter nima uchun kerak?	Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
5.	Sayyoramizga nimalar xavf solmoqda?	3	Tarbiya	Biz qanday dunyoda yashashni istaymiz? Tenglik nima? Sinfdag'i muhit.	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar bilimlarni mustahkamlash
6.	Mening odatlarim	3	Tarbiya	Yaxshi va yomon odatlar. O'zimni boshqaraman. Qonunlarga rioya qilish odati	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar bilimlarni mustahkamlash
7.	Fuqarolik sifatlari	4	Tarbiya	Qobiliyatlarni rivojlantiramiz. O'rganishni o'rganamiz. Xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerak? Huquq va majburiyatlarni to'g'ri tushunish. Navbatda turish madaniyati.	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar bilimlarni mustahkamlash
8.	Xatti-harakatlarimizni	4	Tarbiya	Axloq qoidalariga qanday amal qilinadi?	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar

	qanday nazorat qilamiz?			O'z huquqlarimizni bilamizmi ? O'zgalarni huquqlarini hurmat qilish	bilimlarni mustahkamlash
9.	Biz o'z xatti-harakatlarimiz uchun javobgarmiz	5	Tarbiya	Mas'uliyat nima va uni qanday his etish mumkin? Mas'uliyatsizlik nima? Mas'uliyatning inson hayotidagi o'rni. Mahalla, inson, mas'uliyat, vijdon. Yon atrofdagilarga yordam berish zarurati. Insonlarga qanday yordam berish mumkin?	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar bilimlarni mustahkamlash
10.	Inson huquq va majburiyatları	5	Tarbiya	Bolaning huquq va majburiyatları. Huquq va majburiyatlarga rioya qilishning ahamiyati. O'zgalarning huquqlarini hurmat qilish. Turli ma'lumotlarni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish.	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar bilimlarni mustahkamlash
11.	Xulq-atvor qoidalari - hayot tarzi	5	Tarbiya	Xulq-atvor qoidalari va ularga amal qilish haqida. Jamoat joylarida o'zini tutish. (Teatr, kinoteatr, jamoat transporti, dam olish maskanlari)	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar bilimlarni mustahkamlash
12.	Vijdon va burch bilan yashash	6	Tarbiya	Vijdon va burch tushunchalari mazmunini ochib berish. Vijdonga muvofiq amal qilish, o'ziga nisbatan va boshqalar bilan halol bo'lish. Baxt - toza vijdon bilan yashashdir.	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar bilimlarni mustahkamlash
13.	Adolat hayot haqiqati sifatida	6	Tarbiya	Tenglik tushunchasini ochib berish, qanday qilib, odamlar "teng" bo'lishlari kerak? Boshqa odamlarga: oilada, sinfda,	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar bilimlarni mustahkamlash

				shaharda, mamlakatda teng va adolatli munosabatda bo'lish. Adolat bilan taqsimlash nimani anglatadi.	
14.	Xulq-atvor qanday bo'lsa, oqibat ham shunday bo'ladi	6	Tarbiya	Harakat va qahramonlik o'rtasidagi farq nimada. Noo'rin xatti-harakat va uning oqibatlari. Rost va yolg'on so'zlash. Rost va yolg'on so'zlashning oqibatlari. Rostgo'ylikning qadr-qimmati.	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar bilimlarni mustahkamlash
15.	Inson odobida aks etuvchi fe'l-atvor.	7	Tarbiya	Rostgo'ylik, va'daga vafo qilish, kechirimlilik, adolatsizlik haqida. Boshqalar senga qanday munosabatda bo'lishlarini istasang, sen ham ularga shunday munosabatda bo'l!	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar bilimlarni mustahkamlash
16.	Ogohlik va daxldorlik	7	Tarbiya	Hushyorlik va ogohlik. Ogohlik uyimizda, ota-onada tarbiyasidan boshlanadi. Insonning ogohligi bo'lajak "ta'sirlarni" oldini oladi. Daxldorlik tushunchasi. Illatlarga qarshi immunitet hosil qilish.	Suhbat, blits-so'rov, hikoya, rolli o'yinlar bilimlarni mustahkamlash
17.	Halollik va to'g'rilik	8	Davlat va huquq asoslari	Halollik va to'g'rilik. Yaxshi va yomon xatti-harakatlar. Imtihonlar va test sinovlaridan o'tishda pora berish yoki yaxshi baholar olish uchun pora berish.	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
18.	Huquqiy xulq-atvor	8	Davlat va huquq asoslari	Huquqiy xulq-atvor. Huquqiy xulq-atvor xususiyatlari. Huquqiy xulq-atvor	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy

				turlari. Huquqiy xulq-atvorning shakllari.	mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
19.	Huquqbazarlik	8	Davlat va huquq asoslari	Huquqbazarlik, shu jumladan, korrupsiyaviy huquqbazarliklar. Huquqbazarlikning belgilari (Ijtimoiy xavflilik, huquqqa zidlik, ayblilik, jazoga loyiqlik). Huquqbazarlik turlari.	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
20.	Nima uchun qonunga rioya qilish kerak?	9	Davlat va huquq asoslari	Odamlarga qonunlar nima uchun kerak va qonun ustuvorligi. Hech kim ko'rmagan va bilmagan hollarda, qoida va qonunlarga rioya qilish kerakmi? Huquq tushunchasi. Huquqning axloqdan farqi. Odamlar qonunlarni buzgan hollarda nima bo'ladi? Hamma odamlarni qonunlarga rioya qilishga ko'ndirish mumkinmi?	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
22.	Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari	9	Davlat va huquq asoslari	Inson huquqlari va erkinliklari tushunchasi. Inson huquqlari va erkinliklari tizimi. Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasi va tizimi. Yashash huquqining ta'minlanishi. Aybsizlik prezumpsiyasi. Ta'limg olish huquqi. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi.	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
23.	Fuqarolik jamiyatি	9	Davlat va huquq	Fuqarolik jamiyatি tushunchasi va uning belgilari. Fuqarolik	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga

			asoslari	jamiyati institutlari. Oila, bolalar va yoshlar hamda ularning huuqlari. Ommaviy axborot vositalari. Ochiqlik va shaffoflik. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi o'rni.	doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
24.	Korrupsiya / poraxo'rlik insofsiz va vijdonsiz xulq-atvor shakllaridan biri sifatida	10	Davlat va huuq asoslari	Korrupsiya tushunchasi. Kundalik hayotda korruption holatlar. Korrupsiya uchun kim aybdor? Korrupsiya / poraxo'rlik oqibatlari.	Hayotiy huuqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
25.	Jamiyatda inson huuqlarining o'rni	10	Davlat va huuq asoslari	Jamiyat, shaxs va inson huuqlari tushunchasi. Inson manfaati va jamiyat manfaatining uyg'unligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - inson huuqlari kafolati. Shaxsning huuqiy maqomi (holati). Tenghuuqlik. Gender tenglik. Zo'ravonlikning oldini olish.	Hayotiy huuqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
26.	Inson huuqlarini himoya qiluvchi organlar	10	Davlat va huuq asoslari	Inson huuqlarini himoya qilish bo'yicha davlat organlari tizimi. Inson huuqlari bo'yicha milliy institutlarning ahamiyati. Inson huuqlarini himoya qilishda nodavlat tashkilotlarning o'rni.	Hayotiy huuqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
27.	Korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash choralar	11	Davlat va huuq asoslari	Davlat qanday qilib korrupsiyaga qarshi kurashadi? Korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida davlatda amalga oshirilayotgan chora-	Hayotiy huuqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat,

				tadbirlarning amaliy misollarni ko'rib chiqish (keyslar). Qaysi huquqni muhofaza qiluvchi organlar korrupsiyaga qarshi kurashni olib boradi? Tashkilotlar darajasida korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarning amaliy misollarni ko'rib chiqish (keyslar).	hikoya, bilimlarni mustahkamlash
28.	Mehnatga oid munosabatlar tushunchasi. Yoshlar uchun imtiyozlar	11	Davlat va huquq asoslari	Mehnatga oid munosabatlarning Konstitutsiyaviy asoslari. Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari. Mehnat huquqining subyektlari. Voyaga yetmaganlarning mehnat qonunchiligidagi huquqlari. Yoshlarga beriladigan qo'shimcha imtiyozlar. Nepotizm.	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
29.	Ma'muriy huquqbazarlik va javobgarlik	11	Davlat va huquq asoslari	Ma'muriy huquqbazarlik tushunchasi. Ma'muriy huquqbazarlikning belgilari. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi. Ma'muriy jazo tushunchasi va maqsadi. Ma'muriy jazo turlari.	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash
30.	Jinoyat va jazo	11	Davlat va huquq asoslari	Jinoyat tushunchasi. Jinoyat belgilari. Ayb, aybning shakllari, qasd, qilmishni istisno etadigan holatlar. Jinoyat sodir etish va uning oqibatlari. Odam savdosi	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni

				tushunchasi. Odam o'g'irlash, tuhmat va haqorat qilish (Zo'ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashish).	mustahkamlash
31.	Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar	11	Davlat va huquq asoslari	O'zgalar mulkini talon-toroj qilishga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi va turlari. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar (Mediasavodxonlik). Korrupsiya va uning belgilari. Korrupsiyaga olib keladigan holatlar. Pora olish, pora olish va berishda vositachilik qilish.	Hayotiy huquqiy vaziyat (Keys, kazus)lar yechimlariga doir amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Rolli o'yinlar. Blits so'rov. Suhbat, hikoya, bilimlarni mustahkamlash

O'qitish natijalariga talablar:

- halol va yaxshi xulq-atvor tushunchasi shakllangan,
- axloqiy tamoyillarning hayotiy vaziyatlarga qo'llash ko'nikmalari,
- o'quvchi harakatlar va oqibatlarning aloqasini tushunadi,
- o'quvchi anglab yetgan axloqiy tanlovini qilishi mumkin.
- huquq tushunchasi mazmunini tushunish,
- huquq-tartibot va qonunning tashkil qilinishi va amal qilishi asoslarini bilish,
- fuqaroning ijtimoiy maqomini aniqlay olish,
- manfaatlar to'qnashuvini oldini olish choralarini shakllantirish ko'nikmalari,
- zamonaviy davlatda shaffoflik funksiyalarini tushunish,
- shaffoflikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan choralarini bilish.
- korrupsiya ahamiyati va oqibatlarini tushunish,
- kundalik hayotda korrupsiyani aniqlay olish,
- korruption qonunbuzarliklar uchun javobgarlik turlarini bilish,
- korrupsiyaga qarshi harakat bo'yicha amaliy choralarini bilish.

Mavzularni o'zlashtirishda qo'shimcha ma'lumotlar:

Halollik va to'g'rilik odamning xatti-harakati normasi sifatida

Halollik va to'g'rilik nima? Yaxshi va yomon xatti-harakat misollari. Rostgo'ylik va yolg'on misollari.

"To'g'ri/noto'g'ri" o'yini (vaziyatlarni vaziyat ishtirokchilari harakatlari to'g'ri/noto'g'riliği va ushbu harakatlarning oqibatlarini baholagan holda muhokama qilish).

"O'z qadriyatlaringizni tekshiring" o'quvchilar bilan so'rov o'tkazish.

Odamlarning axloqiy tamoyillari ularning harakatlari asosi sifatida

Axloqiy tamoyillar tushunchasi. Axloqiy tamoyillarni amaliy misollarda tahlil qilish, ularning odamlarning qarorlari va harakatlari bilan aloqasi.

U yoki bu qarorlarni qabul qilgan holda o'quvchilar oldida turgan vazifalarga yechim topish o'yini: axloqiy tamoyillar va oqibatlar nuqtayi nazaridan qarorlarni tahlil qilish.

Axloqiy dilemalarni ko'rib chiqish.

Halollik va to'g'rilik oilada, mакtabda, kundalik hayotda

Axloqiy tanlov nima?

Axloqiy tanlovn ni qilish zarurati bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarni tahlil qilish:

- oilada
- mакtabda/sinfdan tashqari mashg'ulotlarda
- kundalik hayotda (ko'chada, transportda, poliklinikada, do'konda va h.k)
- ishda (kelajakda)

Halollik va to'g'rilik ishda

Odam ishda axloqiy tamoyillarga amal qilishi kerakmi?

Ishda etika me'yorlari: bular nima va ularga nima uchun amal qilish kerak?

Ishda ma'naviy tanlov vaziyatlariga misollar.

Nima uchun qonunga rioya qilish kerak?

Odamlarga qonunlar nima uchun kerak va qonun ustuvorligi nima? Hech kim ko'rmagan va bilmagan hollarda, qoida va qonunlarga rioya qilish kerakmi? Huquq tushunchasi. Huquqning axloqdan farqi nimada?

Odamlar qonunlarni buzgan hollarda nima bo'ladi? Hamma odamlarni qonunlarga rioya qilishga ko'ndirish mumkinmi?

Insoning ijtimoiy rollari va ular orasidagi ziddiyatlar

Insonning ijtimoiy rollari va ularning turli vaziyatlarda o'zaro bog'liqligi (amaliy misollarda). Ijtimoiy rol va ijtimoiy maqom tushunchasi.

Odamlarning ijtimoiy rollari o'rtasida ziddiyat paydo bo'lganida nima bo'ladi? Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi.

Odamlarning ijtimoiy rollari o'rtasidagi ziddiyatlar misollari, ularning oqibatlari va bartaraf etish yo'llari.

Korrupsiya / poraxo'rlik insofsiz va vijdonsiz xulq-atvor shakllaridan biri sifatida

Korrupsiya nima va nima uchun korrupsiya – bu yomon? Korrupsiya uchun kim aybdor?

Korrupsiya/poraxo'rlik haqida bir necha fikrni ko'rib chiqish – ulardan qaysi biri to'g'ri?

Kundalik hayotda korruption holatlar misollari (ishda va kundalik turmushda).

Korrupsiya / poraxo'rlik oqibatlari

Inson korruption harakatni amalga oshirsa, nima bo'ladi? Fuqarolar, tashkilotlar va umuman respublika uchun korrupsiya/poraxo'rlik oqibatlari keys misolida.

Tadbirkorlar o'z faoliyatlari davomida tanlovga duch keladigan vaziyat misollari: axloqiy qadriyatlar va qonunchilikka amal qilish yoki ko'proq foyda olish.

Korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash choralar

Davlat qanday qilib korrupsiyaga qarshi kurashadi? Korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida davlatda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy misollarni ko'rib chiqish (keysler).

Qaysi xususiy tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashni olib boradi? Tashkilotlar darajasida korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarning amaliy misollarni ko'rib chiqish (keysler).

FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN MATERIALLAR

“GRACE” sayti ma'lumotlari va materiallari:

1. Animatsion videolar seriyasi va unga qo'shimcha o'quv-metodik qo'llanmalar.

Mazkur Qo'llanma Korrupsiyaga qarshi kurashishga doir videoma'lumot ga qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ikki komponentdan tarkib topgan material o'rta maktab o'quvchilarini (13-18 yosh) korrupsiya va u bilan bog'liq boshqa xatti-harakatlarning ahamiyati va ta'siri to'g'risida tushuncha hosil qilish jarayonlariga jiddiy tarzda jalg etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Mazkur o'quv dasturi Birlashgan millatlar tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi rahnamoligi ostida kiritilgan "Adolat uchun ta'lif berish" (E4J) tashabbusi doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, u ta'lif orqali qonun ustuvorligiga rioya etilishiga yordam beradi.

https://www.unodc.org/documents/e4j/Secondary/E4J_Secondary_Anti-Corruption_Teachers_Guide_UZBEK.pdf

2. Qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida harakat qilish. O'qituvchilar uchun qo'llanma: Forum Teatridan foydalanib, qonun ustuvorligi, axloqiy qadriyatlar va halollikni o'rta maktablarda targ'ib qilish. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan global resurs: korrupsiyaga qarshi ta'lif va yoshlarga ko'maklashish. 2023.

https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/secondary/GRAVE_Theatre_Guide_Acting_for_the_rule_of_law.PDF

3. Halollik uchun o'ynang.

Ushbu "ilonlar va zinapoyalar" uslubidagi o'yin o'quvchilarga halollikning asosiy tushunchalarini o'rgatish uchun mo'ljallangan. Jamoalardagi o'quvchilar savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarishda raqobatlashish orqali o'yin oxirida ekspertlarga yetkazishlari tavsiya etiladi. Ekspertlar: o'qituvchi yoki mas'uliyatli kattalar bo'ladi. O'yinchilar o'quvchilar.,

Grace veb-saytda mavjud:

https://grace.unodc.org/grace/en/secondary/games_play-for-integrity.html

4. Empowering students for just societies. A handbook for secondary school teachers. UNODC's Education for Justice (E4J) initiative. 2019. Grace veb-saytda mavjud:

https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/UNESCO-UNODC/UNODC-UNESCO_Handbook_for_Secondary_School_Teachers_English.pdf

5. "Purposum - "Adolat posbonlari". 13 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun stol o'yini, adolat tamoyillari orqali global muammolarni hal qilish qobiliyatini rag'batlanadiradi. Grace veb-saytda mavjud:

https://grace.unodc.org/grace/ru/secondary/games_purposum.html

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-y.
2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 03.01.2017-yildagi O'RQ-419-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni, (<https://lex.uz/ru/docs/3088013#3088613>)
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) 2022-yil Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F.
4. Akademik, lug'atlar va ensiklopediyalar (<https://academic.ru/>)
5. Katta ensiklopedik lug'at, 2000 (TABU | eto... Chto takoye TABU? [\[academic.ru\]](https://academic.ru/))
6. Onlayn shkola Skysmart:
<https://skysmart.ru/articles/obshestvoznanie/moralnye-principy>
7. Tolkoviy slovar Ojegova. S.I. Ojegov, N.Yu. Shvedova. 1949-1992. (TABU | eto... Chto takoye TABU? [\[academic.ru\]](https://academic.ru/))
8. [What is corruption? - Transparency.org](https://www.transparency.org/corruption_research/what_is_corruption)
9. [corruption noun - Definition, pictures, pronunciation and usage notes | Oxford Advanced Learner's Dictionary at OxfordLearnersDictionaries.com](https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/corruption)
10. [Anticorruption Fact Sheet \(worldbank.org\)](https://www.worldbank.org/en/topic/anticorruption/factsheet)
11. [CETS 174 - Civil Law Convention on Corruption \(coe.int\)](https://www.coe.int/en/web/ecc-treaty-series/treaty-174-civil-law-convention-corruption) Article 2
12. [UNODC and corruption](https://www.unodc.org/unodc/en/corruption-and-the-public-sector.html)
13. [Anti-](https://www.unodc.org/unodc/en/corruption-and-the-public-sector.html)
Corruption Module 1 What Is Corruption and Why Should We Care.pdf (unodc.org)
14. [Anti-Corruption Module 4 Public Sector Corruption.pdf](https://www.unodc.org/unodc/en/corruption-and-the-public-sector.html) (unodc.org)
15. [\(PDF\) Fraud and Corruption](https://www.researchgate.net/publication/318370344) (researchgate.net)
16. [Deklaratsiyalar, konvensiyalar, kelishuvlar va boshqa huquqiy materiallar \(un.org\)](https://www.un.org/development-group/declarations-and-conventions/declaration-on-fraud-and-corruption)